

TELEKO'RSATUVDA PERSONAJ OBRAZINI TAQDIM ETISHNING IJODIY USULLARI

Umirzakova Nilufar Talibjanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

nilufar74.1974@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada teleloyihada ishtirok etuvchi qahramon va ishtirokchilarni muallif-jurnalist boshchiligidagi ijodiy guruh tomonidan saralash, texnik va ijodiy usullar qo'llanilgan holda efirga taqdim etish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: televidenie, qahramon, portret, personaj, inson, ko'rsatuv, teleloyiha.

XXI asr televideniyesidagi portretlar jamoat arboblari, olimlar, sportchilar, shou biznes yulduzları va ular kabi mashhur insonlarga bag'ishlanadi. Oddiy odamlar, qachonki, noyob kashfiyotlar yoki aql bovar qilmas hodisalar sodir qilganlarida videotasmalarga muhrlanishi mumkin.

Zamonaviy qahramonni, mashhur nomga ega bo'lmagan qahramonni izlab topish oson emas, bu mas'uliyatli vazifani boshlashdan avval, «portret», «zamondosh portreti» tushunchalarining genezisi bilan tanishish kerak¹.

Televideniyening o'ziga xos xususiyatlari ovoz bilan harakatlanuvchi ma'lumotlarni yetkazish, jurnalistning dastur ishtirokchilari va auditoriya bilan aloqaga kirishishi va tezkorlik bo'lsa, teleportret ham boshqa ommaviy axborot vositalaridan rang-barangligi bilan farq qiladi. Personajni monolog tarzidagi uning o'zi, hamkasblari va do'stalaridan yozib olingan intervyusi informasion-tahliliy yoki badiiy publisistik janrda namoyon bo'lsa, tomoshabin qarshisida jamiyatdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabati tashqi ko'rinishidagi a'zolari: ko'zlar, qo'llari va qoshlari orqali ham jonli qiyofada aks etadi.

¹Зеленина Е.В.«Портрет героя»: Ценностно-смысловые и творческие аспекты // Журналистская практика. <https://cyberleninka.ru/2014>. –С.35.

Zangori ekran texnik imkoniyatlari, ifodaviy vositalari tufayli OAVdan bir pog‘ona balandga ko‘tariladi.

Televide niye – rassomlik, haykaltaroshlik, foto va kinodan so‘ng insonni tomoshabop qilishga urinayotgan badiiy ijod turidir. Zangori ekranning eng samarali xususiyatlaridan biri shundaki, u shaxsni yaqindan yirik planda ko‘rsatib, o‘z-o‘zini kashf qilish uchun cheksiz imkoniyatlar taqdim eta oladi. A.V. Efrosning ta’rifi bo‘yicha: «Televide niye – yirik plandagi kino»². Filmlarda ham xuddi badiiy asar singari to‘qima va bo‘rttirilgan obraz orqali, hatto, aytish joizki 3-4 nafar shaxsdan yagona qahramon yaratiladi. Hujjatli film real hayotiy personajga asoslangan bo‘lib, ekrandagi hujjatli-portret bilan o‘xshash tomonlari bor. Farqli tomonlari, film uzoq muddatda yaratiladi va xronometraji tayyor bo‘lgach aniqlanadi. Televizion hujjatli portretda esa shakl deyarli aniq, daqiqalar ham hisoblangan, chunki kamida bir hafta, o‘n kun avval dasturga kiritilishi kerak. Ijodiy jarayonning boshqa tomoni borki, hujjatli filmda voqealar zanjiri ketma-ketlikda qurilmaydi. Televide niyedagi hujjatli portret yaratuvchilari auditoriyani avvaldan tasavvur qiladilar va ommaboplilik uchun harakatda bo‘ladilar. Personaj ommaga namuna bo‘la oladigan har qanday kasb yoki hunar egasi bo‘lishi mumkin, teleijodkorlar uni tomoshabinbop shakllarini taqdim etish yo‘llarini izlashadi. Mexanizm asosan ketma-ketlik asosiga qurilib, auditoriya uchun bir ko‘rganda tushunarli bo‘lishi lozim. Chunki gazeta va jurnallarda jumlalar, fikrlar mag‘zini chaqish uchun qayta o‘qish imkoni bor, televide niyeda esa hammasi lahzalarda namoyon bo‘ladi va anglash uchun tezkorlik darkor. Albatta, texnikaning so‘nggi imkoniyatlarida ko‘rsatuvlarni saqlab qo‘yish funksiyasi bor. Ammo to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilgan teleloyiha bilan interaktiv muloqotga kirishishni istaganlar uchun bu besamar.

Mamlakatimizda noyob qobiliyatga ega insonlar kam emas, hozirgi jurnalistika oddiy insonlardan ham zamondosh portreti kashf qila olishini isbotlayapti. Personajdan portret «yasash» jurnalistning mahoratiga bog‘liq ekan, ijodkorlar guruhi dunyoni tark

²Эфрос А.В. Кино и театр – пути взаимодействия//Искусство кино. №6. 1982. – С.76.

etganlar haqida ham loyihalar tayyorlab, hujjatli xotira – portretlarini tomoshabinlarga taqdim etishyapti. «Mahalla» teleradiokanali orqali 2022 yildan beri efirga uzatilayotgan «Yillar va yo'llar» ko'rsatuvi bunga yorqin misol. 16+ asosida efirga uzatiladigan bu teleloyiha har payshanba efirga berilib, auditoriyasi keng ommaga mo'ljallangan va turli soha vakillarini qamrab olgan. Ko'rsatuv qahramonlari el-yurtga nafi tegib, o'zidan yaxshi nom qoldirgan va qoldirayotgan shaxslardir. Turkum ko'rsatuvlarning shakli bir xil bo'lib, kadr orti matni orqali intervyu shaklida tomoshabinlarga taqdim etiladi. Turli manzillar, telekanallar, teatrlar, O'zbek kinosi va tanlangan qahramonning oilasidagi shaxsiy arxivlar (videomateriallar, fotosuratlar) orqali ko'rsatuv boyitiladi. Mavzuga mos musiqiy bezak ko'rsatuvning ko'rilmiliginini ta'minlaydi. «Yillar va yo'llar» ko'rsatuvining 2022 yil 22 sentyabrda ekran orqali namoyish etilgan soni O'zbekiston san'at arbobi, tarjimon Qodir Mirmuhamedov ijodiy faoliyatiga bag'ishlandi. Ko'rsatuv qahramoni hozirgacha ekranlardan tushmay kelayotgan va tomoshabinlar talabiga muvofiq namoyish qilinayotgan «Boshsiz chavandoz», «Hur qizlar», «Lev Tolstoy», «Qirol Lir», «Soldat otasi» kabi badiiy filmlar, «Qunduz boboning ertaklari», «Sohibjamol va mahluq» kabi multfilmlar, «G'ariblar»dek mashhur spektakllarni tarjima qilgan. Teleloyiha Qodir Mirmuhamedov tarjimasidagi ekran asarlaridan kichik parchalar asosida kadr orti matni, intervyular bilan taqdim etiladi.

Mamlakatimizdagi boshqa telekanallar, xususan, «Madaniyat va Ma'rifat» telekanalidagi «Unutilmas siymolar», «Toshkent» telekanalidagi «Turfa taqdirlar» turkum ko'rsatuvlari ham hujjatli xotira – portret shaklida bo'lib, kadr ortida o'qilgan matn va qahramon haqidagi intervyular, lavhalar orqali auditoriyaga taqdim etiladi. Ularning farqli jihatlari, «Unutilmas siymolar»da ko'rsatuv qahramon nomidan monolog bilan boshlanadi va shu shaklda davom etadi. Qahramon bilan bog'liq misollar musiqiy bezaklar asosidagi intervyular va video-foto lavhalar bilan taqdim etiladi. «Turfa taqdirlar» teleloyihasi uchinchi shaxs tomonidan hikoya qilinib, musiqa asosida intervyular, arxiv materiallari orqali boyitiladi.

Texnologik taraqqiyotning ta'siri, u bilan bog'liq bo'lgan auditoriya ehtiyojlari va umidlari o'rtaqidagi o'zgarishlar televideniyeni tomoshabinlar orasidagi raqobatbardoshligi va dolzarbligini oshiradigan axborotni taqdim etishning yangi usullarini izlashga majbur qilmoqda. Natijada, televizion mediamatn islohotlarga yuz tutib, ekran «tili» o'zgarmoqda va ma'lumotlarni tomoshabinlar uchun yana ham qulay va qiziqarli bo'lishini ta'minlash maqsadida axborotning yangi formatlari joriy etilmoque.

Zamonaviy televideniye tili bugungi kunda u ziddiyatli va murakkab xarakterga ega. Televideniye tiliga ijtimoiy o'zgarishlar (o'tish davri, islohatlar), ommaviy madaniyat, postmodernizm, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Natijada, teleloyihalar tiliga turli xil, hatto, ko'pincha stilistikaning bir-birini inkor etuvchi shakllari qorishib ketadi. Turg'unlik davrining nihoyatda mafkuralashgan, shablonlar tufayli adabiy tildan bir oz uzoqlashgan OAV tili va uslubi paydo bo'ldi. Mazkur holatga sabab, televizion tilga boshqa millatlar lug'atidan kirib kelgan so'z va metaforalardir. S. Shomaqsudova tadqiqotlariga ko'ra: «So'z o'zlashtirish til taraqqiyotining qonuniy ko'rinishidir; xalqlar o'rtaqidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy aloqalar bir tildan ikkinchi tilga so'z va atamalarning o'tib turishini taqozo qiladi»³.

Televizion nutq tahlili, shubhasiz, diskursiv yondashuvni talab qiladi. U yangrayotgan nutq bilan birgalikda geterogen esktralingvistik omillardan paralingvistik (imo-ishora, mimika, plastika) omillarni hisobga olishni taqozo etadi, chunki bularsiz teleekran nutqini tasavvur qilib bo'lmaydi⁴.

Shunday qilib, televideniye tomonidan qo'llaniladigan asosiy shartli belgi so'z ekanligini e'tirof etgan holda, alohida ta'kidlash kerakki, videokontent matn komponenti

³Shomaqsudova S. Matndagi nutqiy birliklar: o'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2021. – B .38.

⁴Teshabayeva D.M. Medialingvistika va tahrir. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – B.203.

bilan ekranda namoyish etilayotgan obraz xususiyatlari bilan ta'minlangan va tasvirlangan. Televizion nutq auditoriya bilan muloqotga kirishganda dialog effektini yaratadi, bu esa o‘z navbatida tomoshabinlarda ishonch uyg‘otadi. Televizion ma’lumotlarning ekran bilan uzviy bog‘liqligiga qaramay, videoqatorning ketma-ketligi voqealar mohiyatini angatsa, televizion kontentdagi semantik yuk ko‘pincha matnga tushadi. Demak, matnga qo‘yiladigan talablar – yorqinlik, aniqlik, anglash uchun qulaylik va qisqalik. Tadqiqotchilar turli janr va nutq konstruksiyalarini o‘zlashtirgan televizion nutqning til vositalari tarkibining har xilliga e’tibor berishadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda televideniyeda turli til uslublaridan foydalanganliklari hamda nutq plyuralizmining faollashuvi barobarida spontan va buzilgan nutqning keng tarqalganligi, adabiy til me’yorlariga rioya qilmaslik tendensiyalari yorqin namoyon bo‘lmoqda. Personifikatsiyalangan televizion nutq doirasida mavjud muammolardan tipik nutq tizilmalari, shablonlar, qisqartmalar, shevalar, jargonizmlar, neologizmlardan foydalanish, o‘zlashtirilgan nutqni o‘ziniki qilib olish va boshqalarni aytish mumkin.

Televideniye auditoriyasining har bir vakili journalist tomonidan taqdim etilayotgan u yoki bu voqelik, u bilan bog‘liq personaj haqida o‘z shaxsiy tasavvurini shakllantiradi. Bu obrazlar uzatilayotgan axborotning ajralmas qismiga aylanadi, auditoriya qabul qilayotgan ma’lumotning mazmun-mohiyati, televideniye tufayli uni yetkazib berayotgan shaxs bilan bog‘liq, u journalist yoki ko‘rsatuv qahramoni bo‘lishi mumkin.

Teleloyihada qahramon tanlovi, uning televideniyedagi barcha vositalar va muallifning nuqtai nazari tufayli yaratilgan obrazi, zangori ekran tendensiyalarining poydevori bo‘ldi, bundan maqsad ommaga ongli ta’sir ko‘rsatishdir. Ko‘pincha, ommaviy axborot vositalari vazifasi jamoatchilik fikrini shakllantirishda auditoriyaning ongi va hatti-harakatlarini manipulyasiya qiladi. Shunday qilib, televideniyedagi ma’lumotni personifikatsiyalash jarayoni – mahsulotni auditoriyaga taqdim etib, ta’sir qiluvchi journalistlarning shaxsiy ma’suliyatiga o‘tadi. Bunday vaziyatda dastur muallifining pozisiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jurnalistning mahorati – qahramon obrazini yaratish uchun ekspressiv vositalar kompozisiyasini to‘g‘ri tanlash, umumiylashtirish, kamera va mikrofon oldida tabiiy va samimiy nutq uchun sharoit yaratish qobiliyatiga bog‘liqligini aniqladik. Mualliflik nuqtai nazari tufayli qahramon teleekranda «gapiruvchi maneken» sifatida emas, balki jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aks ettiruvchi faol, jonli, real ko‘rinishga ega bo‘ladi. Qahramon afsona timsolini emas, zamondosh portretini tavsiflashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Зеленина Е.В.«Портрет героя»: Ценностно-смысловые и творческие аспекты // Журналистская практика. <https://cyberleninka.ru/2014>. – С.35.
2. Эфрос А.В. Кино и театр – пути взаимодействия//Искусство кино. №6. 1982. – С.76.
3. Shomaqsudova S. Matndagi nutqiy birliklar: o‘quv qo‘llanma. – Т.: Universitet, 2021. – В .38.
4. Teshabayeva D.M. Medialingvistika va tahrir. – Т.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – В.203.